

AXLOQIY MADANIYAT VA QADRIYATLAR

G’ulomova Malikaxon Xaydarali qizi
G’ofurova Muqaddasxon Shavkatjon qizi
Soyibjonova Diloromxon Akramjon qizi
Andijon davlat pedagogika instituti talabalari

Kalit so’zlar: *axloq, qadriyat, etika, aksiologiya, odobnoma, tafakkur, dialektik, jamiyat, urf-odat, axloqiylik.*

Ключевые слова: *мораль, ценность, этика, аксиология, этикет, мысль, диалектика, общество, обычай.*

Key words: *morality, value, ethics, axiology, etiquette, thought, dialectic, society, custom,*

Qadriyatlar mavzusining tarixi, ildizlari va insoniyatga xos qadrlash tamoyillari shakllanishi uzoq o’tmishga ega. G’arb olimlari bu borada, asosan, Yevropa madaniy merosi g’oyaligiga tayanadilar, ko’plab allomalarning nomlarini tilga oladilar. G’arbda qadriyatlar bilan shug’ullanadigan asosiy soha – aksiologiya fanining shakllangani ham ularning bunday qarashlari uchun muayyan asos bo’ladi. Qadriyatlar to’g’risida g’arbda keng tarqalgan “Aksiologiya”(aksio – qadriyat, logos – fan, ta’limot) fani rivojlangan mamlakatlarda inson qadri va haq-huquqlariga doir ko’pgina tamoyillarning amaliyoti uchun nazariy asoslardan biri bo’lgan ilmiy sohalar qatoriga kiradi. Qadriyatlarning asosiy shakllarini aniqlash borasida olimlar orasida bir xil va hamma e’tirof etgan yagona nuqtayi nazar yo’q. Ularning moddiy va ma’naviy, umumbashariy va umuminsoniy turlarga bo’lish mumkin. Bu shakllar ham ularga mos ravishda tabiat va jamiyatdagi narsa, voqeа, hodisa, jarayonlar o’zaro uyg’unklikda, qonuniy bog’lanishda, umumiylar aloqadorlikda namoyon bo’ladi. Bunday hollardagi tahlil jarayonida ilmiy bilishning tizimlik usuli, alohidilik, xususiylik va umumiylar, butun va bo’lak kategoriyalarning dialektikasiga asoslanish qo’l keladi. Jamiyatning tub burilish bosqichlarida qadriyatlar tizimi, kishilarning ularga munosabati o’zgarishi shunchalik shiddatli tus olidiki, bu jarayonning tezkor sur’atlarini anglash, izohlash va asoslashga eng dialektik tafakkur usuli ham ulgura olmay qoladi.

Etika fani bir necha ming yillik tarixga ega qadimiy fan. U bizda “axloq ilmi», «odobnoma» kabi nomlar bilan atalgan. Axloq — inson ma’naviy kamoloti sarchashmalaridan biri bo’lib, u tufayli jamiyat ravnaq topadi, fuqarolarning baxt-saodat haqidagi orzu-umidlari ro’ybga chiqadi. U o’zining paydo bo’lish tabiatiga ko’ra ijtimoiy-tarixiy hodisa hisoblanadi. Odamzod ijtimoiy mavjudot sifatida shakllana boshlagan kundanoq axloq paydo bo’lgan. Aniqrog’i, odamzodning o’zi ular o’rtasidagi axloqiy munosabatlarning hosilasi sifatida shakllana borgan. Odamlar o’rtasidagi axloqiy munosabatlar negizida jamiyatning axloqiy hayoti ijtimoiy borliqning tarkibiy qismi sifatida qaror topgan. Inson va jamiyat hayotida axloq talab qiluvchi, tartibga soluvchi, boshqaruvchi, yo’naltiruvchi kuch bo’lganligi uchun ham buyuk mutafakkirlar, shoirlar, olimlar, davlat va jamoat arboblarining diqqatini o’ziga tortib kelgan. Axloqning mohiyatini, tabiatini tadqiq qilish tarixiylik va mantiqiylik, tizimli

yondashuv usullari (metodlari) orqali ish ko‘rishni taqozo etadi. Axloq ilmini o‘rganishga bag‘ishlangan xorijiy va o‘zbek tilidagi adabiyotlarda «axloq», «etika», «moral» degan tushunchalar ko‘plab ishlatiladi. «Etika» so‘zi qadimgi yunonistonlik mutafakkirlar tomonidan fanga kiritilgan. 0 ‘z vaqtida Gomer «ethos» (etos) so‘zidan «birgalikda yashaydigan joy, uy, g‘or, uya, in, makon» ma’nosida foydalangan bo‘lsa, eramizdan avvalgi IV asrda yashagan yunon faylasufi Arastu «etos» so‘zidan ikkita: «Etika» (axloq) va «Etikaviylik» (axloqiylik) degan tushunchalarni keltirib chiqaradi. U «axloqiylik»ni inson qalbining takomillashgan sifatlari — xotirjamlik, og‘irlik, vazminlik, bosiqlik, mardlik, botirlik, jasurlik, qahramonlik, o‘rtachalik, mo‘tadillik va hokazolarni ifodalovchi tushuncha deb bilgan. Shu asosda u etikani-yaxshi fazilatlarga (xislatlar) ega bo‘lgan kishilarni yoki kishilarning yaxshi sifatlarini, ya’ni xayrli, saxovat va himmatli, ezgu ishlarni o‘rgatuvchiilm sohasi deb tushungan.

Darhaqiqat, Arastu etikaga; insonlar o‘rtasidagi munosabat doirasi va oqil ijtimoiy hayvon (individ)ning axloqini o‘rganuvchi fan deb, ta’rif bergen. Bu haqda «Nikomax etikasi», «Evdem etikasi», «Katta etika» kitoblarini yozib «etika» faniga asos solgan1. Demak, G ‘arbiy Yevropada bundan 2500 yil oldin axloq masalasi ilm sohasi sifatida o‘rganila boshlangan. Axloqshunoslik ilmi tarixida axloq va uning mazmun-mohiyatiga doir juda ko‘plab ta’riflar berilgan. Jumladan, «Falsafa: qomusiy lug‘at»ida: «Axloq (arab. Xulqning ko‘pligi; lot. Moralis — xulq-atvor) — ijtimoiy ong shakllaridan biri. Kishilarning tarixan tarkib topgan xulq-atvori, yurish-turishi, ijtimoiy va shaxsiy hayotdagи o‘zaro, Shuningdek, jamiyatga bo‘lgan munosabatlarni tartibga solib turuvchi barqaror, muayyan norma va qoidalar yig‘indisi», — deb ta’riflangan. Ba’zi mualliflar «axloq» iborasi ikki xil ma’noga ega ekanligini, ya’ni umumiyl tushuncha sifatida u fanning predmetini anglatsa, muayyan tushuncha sifatida inson fe’l-atvori va xatti-harakatining eng qamrovli qismini bildirib, jamiyat, zamon, ba’zan insoniyat tarixi uchun namuna bo‘la oladigan umumbashariy ahamiyatga ega ijobiy xatti-harakatlar yig‘indisi, insoniy kamolot darajasini belgilovchi ma’naviy hodisa ekanligini ta’kidlaydi. Har bir insondan umri davomida jamiyatda qabul qilingan urf-odat, an’ana va qonun-qoidalarga amal qilishi talab etiladi. Ana shu jarayonda inson va jamiyat o‘rtasida yuzaga keladigan obyektiv aloqadorlik, ya’ni ijtimoiy munosabat — xulq atvor, odob, xatti-harakat, prinsip va normalarning majmuasi axloqning mazmun mohiyatini tashkil etadi.[1]

Aristotel inson baxtli yashashi uchun nima qilmoq kerak? degan savolga javob berar ekan, axloqiy hatti-harakatning asosiy maqsadi bu baxtiyorlikka erishishdir deb tushungan. Shuningdek, u insonning o‘zini-o‘zi anglash faoliyatini ruhiyatning fazilatlaridan biri deb bilgan. Aristotel inson axloqiy, oqilona hatti-harakati deb o‘zini-o‘zi anglashda haddan oshmaslik, balki, oltin o‘rtalikni saqlash muhim ekanligiga urg‘u bergen. Aristotel’ fikricha, etika insonlar o‘rtasidagi munosabat doirasi va oqil ijtimoiy hayvon (individ)ning axloqini o‘rganuvchi fan. Bu haqda o‘zining “Nikomax etikasi”, “Evdem etikasi”, “Katta etika” kitoblarini yozib “etika” faniga asos solgan1. Etika fanining nomi axloq so‘zidan kelib chiqqan bo‘lib, bu tushuncha to‘g‘risida hozirgacha yaxlit umumiyl qarashlar yo‘q. Buning boisi eng avvalo, Etika so‘zining ko‘p ma’noli va ko‘p qirrali ekanligi bilan izohlanadi. Jumladan, muayyan adabiyotlarda Etika - kishilaming har bir jamiyatga xos xulq normalari majmui deyilsa, boshqalarida esa Etika axloq haqidagi fanning obyektiv ifodasi, maxsus

insonshunoslik fani sifatida axloqning kelib chiqishi va mohiyatini, kishining jamiyatdagi axloqiy munosabatlar ini o'rganadi deyiladi. Etika atamasi ba'zida ma'lum bir ijtimoiy guruhlaming axloqiy me'yorlar tizimiga murojaat qilish uchun ishlatilsa, ba'zida esa butun bir ijtimoiy institutlar va ijtimoiy munosabatlaming axloqiy rivojlanish darajasini belgilash uchun ham ishlatiladi. Aristotel' "axloqiylik"ni inson qalbining takomillashgan sifatlari - xotirjamlik, og'irlilik, vazminlik, bosiqlik, mardlik, botirlik, jasurlik, qahramonlik, o'rtachalik, mo'adillik, evidalik va hokazolarni ifodalovchi tushuncha deb bilgan. Shu asosda u etikani - yaxshi fazilatlarga (xislatlar) ega bo'lgan kishilarni yoki kishilarning yaxshi sifatlarini, ya'ni xayrli, saxovat va himmatli ezgu ishlarni o'rganuvchi ilm sohasi deb tushungan.[2]

Islom axloq falsafasiga ko'ra axloqiy yuksalish imon, haqiqat va adolatdan boshlanadi. Falsafa qomusiy lug'ati imon munyyan fikr, oliy g'oyaning haqiqatligiga komil ishonchdan shaxsdagi alohida ruhiy holatdir deb ta'riflanadi. IsIdii) lul'limotiga ko'ra imon uch unsurdan, ya'ni, ishonch (Alloh n I ng yagonaligiga), iqror (so'zda istig'for qilmoq) va amal (c/KU ishlar bilan qalb va so'z amrini isbotlamoq) dan tashkil topgan, imon ma'naviyatining botiniy mohiyatlaridan biri bo'lib, kishi uchun hayotda to'g'ri yo'l topishning muhim omili hisoblanadi. Imonga asoslangan ruhiy holatlarning mazmuni nsondagi ma'naviy kamolot darajasi bilan belgilanadi.[3]

Axloqiy qadriyatlar majmuasi odamzodning manaviy boyligini, ruhiy teranligini, komilligini bilish, halollik vaadolat, ezgulik va yaxshilik bilan hayot kechirish kabi oliyanob umuminsoniy va milliy xislat-fazilat, ongu tafakkur, xulq- odob, faoliyat, inson va jamiyat o'rtasidagi munosabatlarning mantiqiy ifodasi, desak xato bo'lmaydi. Axloqiy qadriyatlar atamasi axloqiy xislat, fazilat va xususiyatlarda ifoda qilinadi. Ammo, axloqning hamma qirralari, mazmun- mohiyati, jamiyat, millat va fuqarolarning ijtimoiy hayotda namoyon bo'lish shakpi va tamoyillari, axloqiy qadriyatlar tizimida muayyan darajada ifodalanadi. Axloqiy qadriyatlar axloqiy qoida, meyor, ideal va maqsadlarni baholash mezoni va usullarni ham o'zida aks ettiradi. Ular ezgulik, yaxshi lik,adolat, dahldorlik, bag'rikenglik, mehr-oqibat, saxovat, ishonch, or-nomus, vijdon, baxt, burch, mehnatsevarlik, YUrtparvarlik, sadoqat, jasorat, kamtarlik, halollik kabi fazilatlar shaklida namoyon bo'ladi. Axloqiy qadriyatlar tabiat hamda inson, jamiyat va milliy- elatlarning ijtimoiy hayotidagi jarayon, voqealik xodisalarga xos axloqiy munosabatlarni ham o'z ichiga qamrab olgan. Axloqiy qadriyat umuminsoniy xususiyatga ega bo'lish bilan birga millat xususiyatlarga ham boydir. Ayniqsa, qadriyat umuminsoniy xususiyatga ega bo'lish bilan birga milliy xususiyatlarga o'zining mazmun- mohiyati, mavqeい, jamiyat va inson kamolidagi ahamiyati va betakrorligi, serqirra va sermazmunligi bilan millatimiz mentalitetiga xos va manaviyatimizga mos hamda hayotimizning uzviy bir qismi, YAni manaviy hayotimizning negizi sifatida ajralib turadi.[4]

Inson o'zining axloqiy tafakkurini boyitmay turib, baxt saodatga erishuvi yuzaga kelmaydi. Inson yaxshi tarbiya ko'rmagan va turmushda tajriba orttirmagan bo'lsa, u ko'p narsalarni nazarga ilmaydi va ulardan jirkanadi. Har kimki ilm hikmatni desa, uni yoshligidan boshlasin, sog'-salomatligi yaxshi bo'lsin. So'zining ustidan chiqsin, yomon ishlardansaqlansin, xiyonat makr va xiyladan uzoq bo'lsin, diyonatli bo'lishi, barcha qonun-qoidalarni bilishi, bilimdon va notiq bo'lishi, ilmli va dono kishilarni hurmat qilishi. Ilm ahli

va ilmdan mol dunyosini ayamasligi kerak. Menimcha shundagina chin insoniy axloqiy xususiyatlarga ega bo'ladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. “Falsafa asoslari” Q.Nazarov Toshkent 2018
2. Falsafa(I-qism) darslik Toshkent 2019 “Fan va texnologiya”
3. “Axloq falsafasi” M.Ochilova Toshkent 2019
4. Sh.Madayeva va boshqalar, Falsafa o'quv qo'llanma Toshkent 2019